



“ZAMONAVIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKTNI QO‘LLASHNING ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI” XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN 22-23-MAY 2026-YIL

ELEKTRON DASTURIY TA’MINOT - INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA  
O‘QUVCHILARDA TAYANCH KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH VOSITASI  
SIFATIDA

*Babayeva Maxfuza Abduvaitovna*

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti*

*“Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim nazariyasi”*

*kafedrasi dosenti v.b.(PhD)*

*Termiz (O‘zbekiston)*

*e-mail: maxfuza\_babayeva@tues.uz*

*Тел.: +998992019044*

**Аннотасија.** Компетентностниот пристап основан на та’лим о’қувчиларда самостојност, активно граѓанско учество, медијски ресурси и информациони технологии во својата дејност, сознательно избира професија, здрава конкуренција, а исто така и социјални навики. При тоа воведување на електронски образователни ресурси во процесот на непреривно образование има важно значење за развој на образователни компетенции.

**Аннотация.** Компетентностный подход в образовании способствует формированию у учащихся независимости, активной гражданской позиции, инициативности, умению разумно использовать медиа-ресурсы и информационно-коммуникационные технологии в своей деятельности, сознательно выбирать профессию, здоровой конкуренции, а также общенациональных навыков. При этом внедрение электронных образовательных ресурсов в процесс непрерывного образования имеет важное значение для развития образовательных компетенций.

**Abstract.** The competence-based approach in education contributes to the development of students' independence, active citizenship, initiative, the ability to use media resources and information and communication technologies wisely in their activities, conscious choice of profession, healthy

**“ZAMONAVIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKTNI QO‘LLASHNING ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI” XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN 22-23-MAY 2026-YIL**

competition, and national skills. At the same time, the introduction of electronic educational resources into the process of continuous education is essential for the development of educational competencies.

**Kalit so‘zlar:** kompetensiyaviy yondashuv, elektron ta’lim, dasturiy ta’minot, ta’lim, tarbiya, tayanch kompetensiyalar.

**Ключевые слова:** компетентностный подход, электронное обучение, программное обеспечение, образование, воспитание, базовые компетенции.

**Keywords:** competence-based approach, e-learning, software, education, upbringing, basic competencies.

Bugungi kunda barcha fanlarni oqitishda dasturiy ta’minotlar, elektron nashrlar yoki manbalardan foydalanilmoqda. Jumladan, hukumatimiz tashabbusi bilan Raqamli O‘zbekiston – 2030 dasturini joriy etish maqsadida ko‘plab ta’lim muassasalari, xususan, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ta’lim jarayonlarini axborotlashtirish va avtomatlashtirish vazifalarini bajarish yuzasidan vazifalar belgilab berildi [1].

O‘quv jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, ta’lim jarayonini axborotlashtirish, elektron darsliklar, o‘quv-metodik majmualarni yaratish bo‘yicha respublikamiz olimlari ham juda ko‘plab tadqiqot ishlarini olib borgan. Jumladan, U.Sh.Begimqulov oliy ta’lim tizimi uchun elektron-axborot resurslari yaratish, elektron-ta’lim resurslaridan foydalanib ta’lim jarayonini boshqarish, ta’lim jarayonlarini axborotlashtirish, ta’lim jarayonining yagona axborot-ta’lim muhitini yaratish bo‘yicha tadqiqot ishlarini olib borgan [2].

N.I.Taylaqovning ilmiy tadqiqot ishlarida uzluksiz ta’lim tizimi uchun o‘quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish masalalari, yangi avlod o‘quv adabiyotlarining elektron shakli, tashkil etuvchilari, turlari va ulardan foydalanish bo‘yicha asosiy fikrlar, elektron versiyalardagi o‘rgatuvchi kompyuter dasturlarining imkoniyatlari bayon qilingan [3].

A.A.Abduqodirovning tadqiqot ishlarida bo‘lajak fizika-matematika o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlashda axborot kommunikasion texnologiyalaridan foydalanishni tashkil etishning vositalari, usullari, masofaviy ta’lim va uni tashkil etish texnologiyalari bayon qilingan[4]. M.Aripovning ilmiy tadqiqotlari asosan, informatika va axborot texnologiyalarining nazariy asoslari, internet, elektron



**“ZAMONAVIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKTNI QO‘LLASHNING ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI” XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN 22-23-MAY 2026-YIL**

pochta ulardan elektron ta’lim tizimida foydalanishlar, elektron ta’lim muhitini yaratishda dasturiy ta’minotni ishlab chiqish, dasturlash asoslari bo’yicha masalalar to’plami bayon etilgan [5].

D.Abduraximov o‘z tadqiqotlarida axborot texnologiyalaridan ta’lim tizimida foydalanish, elektron axborot resurslarini yaratish hamda ta’lim muassasalarida o‘qitishning turli shakllaridan aloqadorlikda foydalanish metodikasi kabi masalalarni o‘rgangan [6].

Xorijiy olimlaridan B.F.Skinner o‘quv jarayonida ta’lim sifatini tizimli boshqarish, o‘quv va uslubiy axborot resurslarning ahamiyati, ularning miqdor va sifat ko‘rsatkichlari bo’yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan bo‘lsa, J.H.Lee va H.T.Eissa tadqiqotlari elektron ta’limni tashkil etish uchun dinamik moslashuvchi gipermedia tizimlarini yaratishga bag‘ishlangan bo‘lib, WELSA (Web-based Educational system with Learning Style Adaptation – Ta’lim berish stiliga moslashuvchi vebga yo‘naltirilgan ta’lim tizimi) nomli ta’lim platformasini yaratgan [8], [7].

Xitoy, Changchun shimoli sharqiy universiteti olimlari Huma Akrom, Yang Yangxiu, Saudiya Arabistondagi Burayda Qossim universiteti olimi Ali Alxalifaq COVID-19 pandemiya vaqtida ta’limdagi texnologik va pedagogik tarkibli bilimlar integrasiyasi modeli orqali onlayn o‘qitish qobiliyatini baholashni taklif etadi hamda tadqiqotlarida bu vaziyat o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun favqulodda holat bo‘lgan ta’limni an’anaviydan onlayn ko‘rinishiga sezilarli darajada o‘zgartirganini ta’kidlaydilar.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan tadqiqotlardan ko‘rinib turibdiki, o‘quv jarayonining rivojlanishiga sabab bo‘layotgan asosiy jihatlardan biri – bu ta’lim tizimiga axborot texnologiyalarini tadbiiq etishdan iboratdir.

Ko‘pchilik o‘qitiladigan fanlarni o‘qitishda axborot-telekommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi ta’lim sohasida qollaniladigan tegishli dasturiy ta’minot va elektron resurslar mazmunini ishlab chiqish bilan bog‘liq muammolar majmuasini keltirib chiqarmoqda. M.Mamarajabovning tadqiqot ishlarida ta’kidlanishicha, tegishli o‘quv materialiga kirishning cheklanganligi, texnik malakalarining yetarli emasligi tegishli raqamli kurs materiallariga kirish tartib-qoidalariga ta’sir qiladi. Uning tadqiqotlarida tegishli video yozuvlar, shuningdek, grafiklar va animatsiyalarni - talabalarga

**“ZAMONAVIY TA’LIMDA SUN’IY INTELEKTNI QO‘LLASHNING ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI” XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN 22-23-MAY 2026-YIL**

rag‘batlantiruvchi o‘quv materiallari sifatida taqdim etishda yetarlicha tajribalar mavjud emasligi jiddiy pedagogik muammo sifatida talqin qilingan.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta‘lim jarayonida joriy etilish taxlili ularning: o‘quvchiga dunyoviy bilimlarni egallashiga; o‘rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish orqali fan sohasini chuqur o‘zlashtirilishiga; o‘quv faoliyatini tashkil etishning xilma-xilligi hisobiga o‘quvchining mustaqil faoliyati sohasining kengayishiga; interfaol muloqot imkoniyatlarining joriy etilishi asosida o‘qish jarayonini individuallashtirish va differensiyalashtirishga; sun‘iy intellekt tizimi imkoniyatlaridan foydalanish orqali o‘quvchida o‘quv materiallarini o‘zlashtirish strategiyasini egallashiga; Jamiyatning har bir a‘zosi axborot madaniyatini shakllanishiga; o‘rganilayotgan jarayon va xodisalarni kompyuter texnologiyalari vositasida takdim etish, o‘quvchilarda qiziqishni va faollikni oshirish vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatdi.

**Xulosa.** So‘nggi bir necha yil davomida olib borilgan tadqiqotlar bunday o‘quv vositalarini ishlab chiqish va qo‘llash nazariyasi uchun asos bo‘ldi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy o‘qituvchi o‘z kasbiy faoliyatida axborot va telekommunikatsiya texnologiyalaridan faol foydalana olishi hamda elektron ta‘lim resurslarini yarata olishi kerak .

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. Бегимкулов У.Ш. Педагогик таълимда замонавий ахборот технологияларини жорий этишнинг илмий-назарий асослари. Монография. –Т.: Фан, 2007. 143 б.
3. Тайлақов Н.И. Узлуксиз таълим учун информатикадан ўқув адабиётлари янги авлодини яратишнинг илмий–педагогик асослари. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. –160 б.
4. Абдуқодиров А.А. Теория и практика интенсификации подготовки учителей физико-математических дисциплин. Аспект использования компьютерных средств в учебно-воспитательном процессе: дисс. ... док. пед. наук. – Ташкент: ТГПИ, 1990. – 360 с

**“ZAMONAVIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKTNI QO‘LLASHNING ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI” XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN 22-23-MAY 2026-YIL**

5. Арипов М., Пудовченко Ю., Арипов К. Основы Интернет. – Тошкент: Университет, 2002. – 194 с.
6. Абдурахимов Д.Б., Академик лицейларда информатикани таълим турлари алоқадорлигида ўқитиш методикаси: пед. фан. номз... дисс. автореферати. – Тошкент: ТДПУ, 2007. – 24 б.
7. Skinner B.F. The science of learning and art of teaching. // Harward Education Review. – Harward: Spring, 24, 1954. – p. 86-97.
8. J.H.Lee, H.T.Eissa Dynamic adaptive Web-based model for architectural design education. <http://www.archnetijar.net/index.php/IJAR/article/view/230/261>.